

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№2

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 765 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILYI MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA‘MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o‘g‘li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO‘YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG‘URTA FAOLIYATIDAGI MOLIYAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBİ: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJYIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJRIBASI	66
Alimardonov G‘ayratjon Nuraliyevich	
XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o‘g‘li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA‘MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIVA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY JIHA TLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI	165
Yakubov Temur G'anibekovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI	169
Siroj Zarina Rustambekovna	
AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	176
Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Ziyodullayev Qahramon	
ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ	185
Хамдамова Гавхар Абсаматовна	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIVAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	191
Mamatov Baxodir Quldoshovich	



KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH	197
<i>Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li</i>	
MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	205
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	209
<i>Nomozova Qumri Isoyevna</i>	
XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	216
<i>Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li</i>	
QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHNI TARTIBGA SOLISH TIZIMI	221
<i>Achilova Firuza Kurbanovna</i>	
BANK MENEJMENTIDA INKLYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TAMOYILLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI	225
<i>Rajabov Oybek Panjievich</i>	
MINTAQADA OLIY TA'LIM TIZIMINING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	229
<i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>	
MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASTER MODELINI JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	235
<i>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISH	240
<i>Xatamov Nurbek Ochildiyevich, Sharifi Abdul Fatah</i>	
MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNING AMALDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHIMI YUZASIDAN TAKLIFLAR	245
<i>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK RISKLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	251
<i>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	257
<i>Karimov Shohrux Boydulla o'g'li</i>	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATINING HISOBOTLARINI XALQARO STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISH	262
<i>Astanov Zafar Murodillayevich</i>	
QARAMA-QARSHI AYLANUVCHI IKKI ROTORLI SHAMOL TURBINASINING MATEMATIK MODEL	266
<i>Pirmatov Nurali Berdiyevich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Saodullayev Abror Saypullayevich, Qurbonov Najmiddin Abduxamidovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL VA INVESTITSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	272
<i>Norboev Sarvar Azodovich</i>	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI	277
<i>Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li</i>	
ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S MAIN ECONOMIC INDICATORS AND GDP GROWTH	283
<i>B.Beknazarov</i>	



SOTISH JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA MARKETING TADQIQOTLARINING INTEGRATSIIYASI	288
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АУДИТЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ И УЗБЕКСКИЙ КОНТЕКСТ	294
Мегноров Алмардон Абдирахмонович	
RISK MANAGEMENT STRATEGIES IN UNCERTAIN ECONOMIC ENVIRONMENTS: A GLOBAL COMPARATIVE STUDY	302
Nigmatova Malika	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIIYAVIIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	307
Hamrayev Maqsudjon Saidaxmadovich	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH MASALALARI	311
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
АВТОМАТИЗАЦИЯ АУДИТОРСКИХ ПРОЦЕДУР НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ: ВЛИЯНИЕ НА КАЧЕСТВО АУДИТОРСКИХ ЗАКЛЮЧЕНИЙ	316
Киличева Ф.Б.	
MAISHIY TEXNIKA EKSPORTIDA YASHIL IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	320
Kushmanova Mahbuba	
GAZ TA'MINOTIDA YO'QOTISHLARNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI	324
Xamidov Xayriddin Faxritdinovich	
DAVLAT AKTIVLARINI XUSUSIYLASHTIRISHNING MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	329
Sharapov Farrux Shomuratovich	
КРИТЕРИИ ОТБРАКОВКИ ЭКСТРУЗИОННЫХ АЛЮМИНИЕВЫХ ПРОФИЛЕЙ ГРУППЫ ALMGS1 ПО МАКРОСТРУКТУРНЫМ ПРИЗНАКАМ В ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ УСЛОВИЯХ	333
Ибрахимов Фаррухжон Фарходович	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DEBITORLIK QARZLARI VA FAKTORING OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	336
G'oziyeva Mokhira Rustamovna	
KULTIVATOR YUMSHATKICH PANJALARI O'TMASLANISH DARAJASINING ISH KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	345
Quvondiqov Yoqub Tursunbaevich, Nuraliyev To'liqin Alimardanovich	
SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION STRATEGIYANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	352
To'g'onov Ibroximxo'ja	
TMK KORXONASI SHAROITIDA R6AM5 MARKALI TEZKESAR PO'LATDAN TAYYORLANGAN PARMA UCHUN TERMIK ISHLOV BERISH REJIMI	358
Djalalova Sevara Toxtamuratovna	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	362
Шоев Алим Халмуратович	
TRANSFORMATSIYA VA XUSUSIYLASHTIRISH OMILLARINING BANK SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	367
Umirzoqova Aziza Olim qizi	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	372
Ismatov Raxmatilla Oltinovich	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA.....	376
Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li	



BANK TIZIMIDAGI AKTIVLARINING UNUMDORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA STRATEGIK YONDASHUVLAR	379
Sadikov Q.M.	
СЦЕНАРНОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ НЕОПРЕДЕЛЁННОСТИ И СТРУКТУРНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	383
Муслимова Ф.С., Хашимова Н.А.	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMATLARNI TAQDIM QILISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	390
S.M. Raximova	
YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MODELI	395
Qurbanova Muazzam Fazliddinovna	
IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSİYALASHUVI JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING TAHLILI	399
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISH MASALALARI	404
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING INNOVATSION FAOLIYATINI INVESTITSİYALAR YORDAMIDA QO'LLAB-QUVVATLASH	408
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
FRANSUZ TILIDA FE'L SEMANTIKASINING KO'PMA'NOLILIK VA BIRMA'NOLILIK ASPEKTLARI	412
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Bekmetova Munisa Karimbayevna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARDA CHET-EL INVESTISIYASI VA KREDITLARINI ROLI	418
Sultanov Anvar Abdullaevich	
INSON QON TOMIRLARINING TARMOQLANISHINI L-SISTEMALAR ASOSIDA HOSIL QILISH ALGORITMNI ISHLAB CHIQUISH	423
Boliyeva Dilrabo Nurbek qizi	
YASHIL IQTISODIYOT LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH)NING AHAMIYATI	429
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI	434
Otaylor Usmonaliyev	
TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA ARBITRAJI VA UNING MOHIYATI	440
Yaxyayev Ziyodilla Lutfullayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	443
Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna	
DON VA UN MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI	450
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TUXUM ISHLAB CHIQUARISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	454
Ismoilov Zuhridin Sayitqulovich	
ZAMONAVIY TURAR-JOY ME'MORCHILIGIDA MILLIYLIK VA AN'ANAVIYLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI	459
Toshniyozov Otabek Hakimovich	



ZAMONAVIY TURAR-JOY ME'MORCHILIGIDA MILLIYLIK VA AN'ANAVIYLIKNING O'RNINI VA AHAMIYATI



Toshniyozov Otabek Hakimovich

University of Business and Science Toshkent filiali

Aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi

E-mail. arxitektorotabek@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kundagi zamonaviy me'morlikdagi o'zgarishlar hamda an'anaviy turar uylar me'morchiligi tahlil qilinadi. Ichki va tashqi hovlilari turar uylarning arxitekturaviy echimi, hududiy shakllanishi, tarixiy tuzilishi, mahalliy qurilish materiallaridan foydalanish, qo'llanilgan me'moriy elementlar va bezaklar yoritib berilgan. Shuningdek, turar uylar arxitekturasiga iqlim sharoitining ta'siri hamda tarixiy shaharlar hududida shakllangan turar uylarning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ilmiy fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: hovli, mehmonxona, bolaxona, tokcha, mehrob, ayvon, ustun, bezak, iqlim, hudud.

Abstract. This article examines contemporary changes in modern architecture and analyzes the architectural characteristics of traditional residential houses. The study highlights the architectural solutions of houses with inner and outer courtyards, their regional formation, planning structure, use of local building materials, and applied architectural elements and decorative features. In addition, the influence of climatic conditions on residential architecture is discussed, along with the distinctive features of residential buildings formed within historical urban areas.

Keywords: courtyard, guest room, upper room, niche, mihrab, veranda, column, ornament, climate, region.

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные изменения в архитектуре, а также архитектура традиционных жилых домов. Освещаются архитектурные решения жилых домов с внутренними и внешними дворами, их территориальное формирование, планировочная структура, использование местных строительных материалов, применяемые архитектурные элементы и декоративные особенности. Также анализируется влияние климатических условий на архитектурное решение жилых домов и приводятся особенности архитектуры жилой застройки, сформированной на территории исторических городов.

Ключевые слова: двор, гостиная, болахона, ниша, михраб, айван, колонна, декор, климат, территория.

KIRISH

Hozirgi kunda yurtimizning barcha hududlarida aholi sonining o'sishi natijasida zamon talablariga mos, qulay shart-sharoitlarga ega turar uylarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Zamonaviy arxitekturada nafaqat ko'p qavatli turar uylar qurilishi jadal rivojlanmoqda, balki kam qavatli turar uylar ham talab darajasida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Biroq kam qavatli turar uylar me'morchiligida zamonaviy arxitektura qo'llanilishi natijasida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar, ayrim hollarda an'anaviy me'morlikdan chetlanish va evropalashish jarayonlarini namoyon etmoqda. Natijada turar uylarni loyihalash jarayonida arxitekturaviy-rejaviy echimlarda milliylik va an'anaviylikka etarli e'tibor qaratish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.



Shu munosabat bilan an'anaviy me'moriy elementlarni zamonaviy me'morchilikda innovatsion materiallar va texnologiyalar asosida qayta talqin qilish, ularni transformatsiya qilish bugungi kundagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu boisdan tarixan shakllangan an'anaviy turar uylar me'morchiligini chuqur o'rganishga alohida e'tibor qaratildi.

Jahon madaniyatida O'rta Osiyo an'anaviy turar uylarining o'ziga xos qiyofasi va betakror arxitektura echimlari bilan ajralib turishi e'tirof etilgan. Shu bilan birga, bugungi kunda minglab sayyohlarni o'ziga jalb etib kelayotgan tarixiy shaharlarimizdagi turar uylarimizga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda.

Hozirgi kungacha saqlanib qolgan ko'plab tarixiy turar uylarni asrab-avaylash, ularning yo'qolib ketishining oldini olish muhim vazifalardan biridir. Ularni o'rganish, ilmiy tadqiq etish va izlanishlar olib borish esa arxitektura merosini saqlash va rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

O'rta Osiyo me'morchiligida turar joylarning shakllanishida har bir davr va har bir hududning o'ziga xos o'rni va ahamiyati mavjud bo'lgan. Qadimiy shaharlarda turar joylar me'morchiligi jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, oilaviy hayot tarzi hamda iqlim sharoitlariga mos holda rivojlangan.

Tarixiy shaharlar — Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qo'qon, Toshkent va boshqa hududlarda saqlanib qolgan, har bir hududning o'ziga xos qurilish uslubini aks ettiruvchi ko'plab an'anaviy turar uylar me'moriy merosning nodir namunalari hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Paxsali qurilish texnologiyasi, ayniqsa Xorazm mintaqasida, uzoq vaqt davomida asosiy konstruktiv echim sifatida qo'llanilgan. V. Voronin mazkur qurilish usulining o'ziga xos jihatlari sifatida uning issiqlikni saqlash qobiliyati, iqlim sharoitlariga moslashuvchanligi hamda mahalliy materiallarga tayanishini ta'kidlaydi [1, 60–61-b.].

Yana bir olim G.A. Pugachenkova tarixiy yodgorliklarni tahlil qilar ekan, o'zbek arxitekturasining asosiy tipologik xususiyati sifatida "ichki hovlilili, yopiq kompozitsiyali, markazga yo'naltirilgan" reja echimlarini qayd etadi [5, 187-b.]. Ushbu tizim Urganchdagi an'anaviy uy-joy turlari bilan uyg'un bo'lib, mustaqillikdan keyingi davrda qayta talqin qilina boshlagan.

Avvalgi davrlarda bezak va dekor elementlaridan foydalanish cheklangan bo'lsa-da, G.A. Pugachenkova fikriga ko'ra, tarixiy binolardagi koshin, muqarnas va ganchkorlik kabi bezak elementlari milliy identitetning muhim tashuvchilari hisoblanadi [5, 187-b.]. Mustaqillikdan keyin barpo etilgan ayrim turar joy majmualarida ushbu elementlarga qaytish, ya'ni zamonaviy va milliy shakllarning uyg'unlashuvi kuzatilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Turar joylarning ijtimoiy tuzilishi va funksional rejasi oilalarning tarkibi hamda ijtimoiy mavqeiga qarab turlicha rejalashtirilgan. Katta oilalarda turar uylar ichki va tashqi hovlilarga ajratilgan bo'lib, ichki hovli asosan ayollar va bolalar uchun, tashqi hovli esa erkaklar hamda mehmonlarni qabul qilish uchun mo'ljallangan. Shu bilan birga, xonadonning asosiy binolarida bir nechta xonalar, dahliz va ayvonlar mavjud bo'lgan. Xo'jalik binolari tarkibida esa hojatxona, molxona va boshqa zarur qo'shimcha xonalar hovli hududida joylashtirilgan. Shaharning aholisi zich hududlarida mehmonxonalar ikkinchi qavatda, bolaxonali qilib qurilgan.

Uylarning asosiy badiiy qiymati hovli orqali namoyon bo'lib, ko'cha tomondan faqat o'ymakorlik bilan ishlangan eshik va darvozalar ko'zga tashlangan. Shu sababli an'anaviy turar uylarni hovli va ayvonsiz tasavvur etish qiyin. Ayvon o'zbek an'anaviy me'morchiligining ajralmas qismi bo'lib, nafaqat me'moriy, balki madaniy, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan yarim yopiq, ochiq fazo hisoblanadi.

Ayvon yopiq xona bilan ochiq muhit orasidagi oraliq makon sifatida tavsiflanadi. Ushbu makon uy ichki muhitini tashqi iqlim ta'siridan himoya qilish bilan birga, yashash hududini kengaytirishga xizmat qiladi [1].

An'anaviy turar joy binolari qurilishida qurilish materiallari va konstruktiv echimlarga katta e'tibor qaratilgan. Asosan mahalliy materiallar — paxsa, g'isht, guvala va yog'och keng qo'llanilgan. Pishgan g'isht esa asosan madrasalar, hammomlar, shuningdek, yirik amaldorlar va badavlat tabaqa vakillarining uylarini qurishda ko'proq ishlatilgan.

Badiiy echim va estetik jihatlar har bir binoning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Turar joylarning ichki bezagi va badiiy echimlari, xonalarning ichki tuzilishi hamda jihozlanishi xonadon egasining ijtimoiy mavqeiga mos ravishda amalga oshirilgan. Ayniqsa, o'zbekona uslubga xos mehmonxonalar echimida tokcha, taxmon, naqshinkor shiplar va devorlardagi badiiy naqshlar interyerning badiiy ifodasini yanada boyitgan. Xona interyerida qo'shimcha bezak va jihozlar sifatida gilam, so'zana, choyshab, sandiq va xontaxta kabi buyumlar keng qo'llanilgan.

E'tiborimizni tarixiy shaharlarimizda shakllangan turar uylar va hududiy me'moriy maktablarga qaratamiz. Tarixiy shaharlarda saqlanib qolgan turar joylar — Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qo'qon va Toshkent



shaharlarida XVIII–XIX asrlarga mansub an'anaviy turar joy namunalari bugungi kungacha etib kelgan. Ushbu uy-joylarda shakl va hajm mutanosibligi, past-balandlikning uyg'unligi, mahalliy qurilish materiallaridan foydalanish hamda quyosh issiqligini kamaytirishga qaratilgan me'moriy echimlar mujassam etilgan [2].

Umuman olganda, Markaziy Osiyo me'morchilik an'alarida bino tarxi uzoq tarixiy davr mobaynida muhim rejalashtiruvchi unsur sifatida shakllangan. Uning rivojlanish jarayonida hududga xos keskin kontinental iqlim sharoiti hal qiluvchi omil bo'lgan. Yozning haddan tashqari issiq, qishning esa sovuq bo'lishi bino rejasini tabiiy muhit va iqlim sharoitlariga mos holda loyihalashni taqozo etgan.

Buxoro hududida shakllangan turar uylarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, bugungi kungacha saqlanib qolgan uylarning me'moriy echimida funksional jihatdan tashqi va ichki hovlilarga ajratilganlik yaqqol ko'zga tashlanadi. Buxoro shahrida ikki yoki uch qavatli uylar qurilishi keng tarqalgan bo'lib, ayrim hovlilarning deyarli butun maydoni qurilmalar bilan band etilgan [3]. Bu holat er maydonidan samarali foydalanish zarurati bilan izohlanadi.

Buxoro me'morchiligida ayvonlar ko'pincha hovlining burchak qismlarida yoki o'zaro burchak hosil qilgan holda joylashtirilgan. Ayvon ustunlari badiiy bezak sifatida bino estetik qiyofasini boyitishga xizmat qilgan. V. Voronina "o'zbek me'morchiligida ustun tayanch emas, balki badiiy bezakdir" [1], degan fikrni ilgari suradi.

Xalq me'morchiligida mehmonxonalar qurilishi va ularning badiiy bezagiga alohida e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, Buxoro shahrida amaldorlar va badavlat qatlam vakillari hovlilarida mehmonxona butun uy majmuasining markaziy va eng muhim qismi hisoblangan. Shu bois mehmonxonaning hajmi, balandligi va bezak darajasi uy egasining jamiyatdagi mavqei va ijtimoiy holatini ifodalovchi muhim mezon bo'lgan.

Buxoro uylarining aksariyatida mehmonxona ikkinchi qavatda joylashtirilgan bo'lib, u bir asosiy xona va dahlizdan iborat bo'lgan hamda deyarli barcha tomonlari ayvon bilan o'ralgan. Bunday rejalashtirish mehmonxonaning nufuzini oshirish bilan birga, iqlim sharoitiga mos qulay muhit yaratishga xizmat qilgan.

Mehmonxonalar ko'pincha shimol tomonga, ayrim hollarda esa sharq tomonga yo'naltirib qurilgan. Tuzilishi jihatidan ular yozgi va qishki xonalar singari dahliz va madon (oldi maydon)ga ega bo'lib, balandligi ushbu xonalarga nisbatan deyarli ikki baravar yuqori bo'lgan. Dahliz va madon ustida esa alohida e'tiborli mehmonlar uchun mo'ljallangan "shohnishin", ya'ni sharafli o'tirish joylari barpo etilgan. Shohnishin unsuri xalq me'morchiligiga saroy me'morchiligi an'alaridan kirib kelgan bo'lib, bunday echim Buxorodagi ko'plab amaldorlar uylarida uchraydi. Ushbu unsur mehmonxonaga tantanavorlik, ijtimoiy mavqe va ramziy mazmun bag'ishlagan.

Endi e'tiborimizni Shahrisabz hududida shakllangan turar uylarga qaratamiz. Shahrisabz an'anaviy turar joylarining rejaviy tuzilishi va me'moriy unsurlari O'zbekistonning boshqa tarixiy hududlari singari ichki va tashqi hovlilar asosida shakllangan. Ichki hovli tarkibiga yashash xonalari, oshxona va ayvon kirib, u asosan xonadon a'zolarining kundalik hayoti uchun mo'ljallangan. Tashqi hovli esa kirish qismida joylashgan bo'lib, unda mehmonxona, unga tutash dahliz, "G" shaklida qurilgan ayvon hamda xo'jalik xonalari joylashtirilgan.

Shahrisabz turar joylarining sxematik reja echimlarida mehmonxonalarning joylashuvi turlicha bo'lganini kuzatish mumkin. Ayrim bir hovlili uylarda mehmonxona bir xona, dahliz va ayvondan iborat holda birinchi qavatda joylashgan. Boshqa bir hovlili uylarda esa mehmonxona ikkinchi qavatda barpo etilib, u bir xona, dahliz va omborxonadan tashkil topgan. Shuningdek, ikki hovlili uylardan ayrimlarida tashqi hovlining ikkinchi qavatida joylashgan mehmonxona va omborxona orasida baland qilib qurilgan shiypon mavjud bo'lgan [4].

Shahrisabz turar joy me'morchiligida, boshqa hududlardagi kabi, osma — ya'ni devor sathidan bo'rtib chiqqan ravoqli tokchalar keng tarqalgan. Ushbu tokchalar ko'pincha xonaning eni bo'ylab joylashgan devorda bir-biriga tutashgan bir nechta osma shkaf ko'rinishida yoki devorning yuqori qismida tokcha bandi sifatida ishlangan. Bu me'moriy unsur nafaqat funksional, balki ichki makonning badiiy ifodasini kuchaytiruvchi muhim element hisoblanadi.

Samarqand an'anaviy turar joy uylarining reja va badiiy xususiyatlariga ko'ra, ushbu hududda ham ikki hovlili tuzilma keng tarqalgan. Tashqi hovlining birinchi qavati ayvonlar orqali chegaralangan bo'lib, tashqi hovli hududida mehmonxona joylashgan. Uning ikkinchi qavatida esa xonalar barpo etilib, old qismi uzluksiz ayvonlar bilan to'ldirilgan. Bunday rejalashtirish mehmonlarni qabul qilish jarayonini xonadonning kundalik hayotidan ajratishga xizmat qilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalq me'morchiligi an'alariga ko'ra, mehmonxona shifflari asosan kabza uslubida yopilgan bo'lib, ular rang-barang va murakkab bezaklar bilan boyitilgan. Devor yuzalarida rangli naqshlar ishlangan, ganchdan o'yib tayyorlangan naqshinkor pannolar esa xonaning badiiy qiyofasini yanada yuksaltirgan.

Konstruktiv jihatdan shiftni ko'tarib turuvchi to'sinlar markaziy qismda to'g'ri to'rtburchak shakldan uch yuzali "barg qirqimi" orqali bosqichma-bosqich aylana shakliga o'tkazilgan. To'sinlar va vassalar qizil va sariq rangli fon ustida oq, och sariq, och qizil, och havorang, ko'k va yashil ranglarda ishlangan o'simliksimon

naqshlar, gul va barg tasvirlari bilan bezatilgan. Ushbu ranglar uyg'unligi mehmonxonaga nafislik va badiiy yaxlitlik bag'ishlagan.

Toshkent an'anaviy uylarida mehmonxona odatda tashqi hovlining ikkinchi qavatida joylashgan. U kvadrat shakldagi ayvon va hashamatli, keng xonadan iborat bo'lib, ayvon asosiy xonaga nisbatan balandroq qurilgan hamda to'rt tomondan bezakli panjaralar bilan o'ralgan. Mehmonxona devorlari ganchkorlik asosida ishlangan naqshinkor tokchalarga bo'lingan. Poygak qismi ustunlar yordamida xonaning asosiy hajmidan ajratilgan. Ichki bezakda tokcha va taxmonlar muhim o'rin tutib, ular o'simliksimon va geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Ushbu elementlarning o'zaro uyg'unligi mehmonxonaga nafislik va yuksak badiiy ifodalilik baxsh etgan.



ХОРАЗМ МИЛЛИЙ-АНЪАНАВИЙ УЙЛАРИ.



БУХОРО МИЛЛИЙ-АНЪАНАВИЙ УЙЛАРИ



САМАРҚАНД МИЛЛИЙ-АНЪАНАВИЙ УЙЛАРИ



ФАРФОНА МИЛЛИЙ-АНЪАНАВИЙ УЙЛАРИ

1-rasm. Hududiy shakllangan milliy-an'anaviy turar uylar

Farg'ona vodiysi an'anaviy uylarida mehmonxona va ichki bezaklar o'ziga xos tarzda tashkil etilgan. Mehmonxona ko'pincha alohida, kichik hovliga ega bo'lgan holda barpo etilgan. Vodiyning shaharlarida mehmonxonalar, asosan, oldi ayvonli tarzda qurilgan. Andijon, Qo'qon va Marg'ilon shaharlarida kosibchilik bilan shug'ullangan oilalarning aksariyati XIX asr oxiri — XX asr boshlariga qadar ichki va tashqi hovlili uy-joylarda yashagan bo'lib, tashqi hovli hududida mehmonxona joylashtirilgan.

Farg'ona vodiysi turar joy me'morchiligiga xos bo'lgan muhim elementlardan biri kaminsimon mo'rilar hisoblanadi. Ushbu mo'rilar xonaning poygak qismi devorida joylashtirilib, badiiy va konstruktiv echimlariga ko'ra bir nechta asosiy turlarga bo'linadi. Jumladan, ular uch gumbazli, qashqarcha va no'g'aycha ko'rinishlarda ishlangan.

Gumbazli mo'rida oldi ochiq, yarim aylana shaklidagi devorcha ko'tarilib, uning yuqori qismi gumbazsimon tarzda yopilgan bo'ladi. Ochiq qismi bezakli va jozibador ravoq shaklida ishlangan. Qashqarcha mo'ri to'g'ri to'rtburchak shakldagi devorcha usti tekis yopilgan bo'lib, ochiq qismi sodda ravoq ko'rinishida bajarilgan. No'g'aycha mo'ri esa devor yuzasidan bo'rtib chiqqan to'g'ri to'rtburchak shaklga ega bo'lib, uning ravoq qismi yuqori qismida yarim aylana ko'rinishida yakunlangan [1].

Mehmonxona ichki jihozlarida taxmonlar muhim o'rin tutgan bo'lib, ular ko'plab ko'rpa-to'shaklar, yostiqlar va choyshablar bilan to'ldirilgan. Tokchalarda esa turli xil idish-tovoqlar joylashtirilgan. Ayrim xonadonlarda madaniy hayot bilan bog'liq buyumlar ham saqlanib, ulardan dutor, tanbur, doira, g'ijjak yoki chang kabi cholg'u asboblardan bir yoki ikkitasi uchragan. Bu holat mehmonxonaning nafaqat ijtimoiy, balki madaniy ahamiyatga ega makon bo'lganini ko'rsatadi.

Endi e'tiborimizni Xorazm vohasiga qaratsak, ushbu hududga xos keskin kontinental iqlim sharoiti turar joy binolarining arxitekturaviy echimlariga bevosita ta'sir ko'rsatganini ko'rish mumkin. Bino xonalarining funksional joylashuvi, ventilyatsiya tizimi hamda ichki muhitda haroratning barqarorligini ta'minlash masalalari yoz faslida yuqori issiqlik, qish faslida esa past harorat bilan tavsiflanadigan iqlim sharoitida muhim ahamiyat kasb etgan.



Xiva uylarining tashqi qiyofasi o'ziga xos estetik ifodaga ega bo'lib, deyarli barcha xonadonlarda shimol tomonga yo'naltirilgan ayvonlar barpo etilgan. Aynan ushbu ayvonlar yoz faslida, xususan "saraton" davrida, jazirama issiqdan himoyalashda asosiy funksional makon vazifasini bajargan.

Ayvonlar shakli va hajmi jihatidan turlicha bo'lib, ko'proq o'zining vertikal yo'nalishi bilan boshqa hududlardagi uslublardan ajralib turadi. Shimol tomonda ko'pincha bir ustunli, baland ulug' ayvon qurilgan bo'lib, u boshqa xonalarga nisbatan balandroq sathda joylashtirilgan. Xivaning Dishan qal'asi hududidagi turar joylarda ayvonlarning bir nechta asosiy turlari kuzatiladi:

– kichik hajmdagi hovliga ega bo'lgan uylar uchun mo'ljallangan bir ustunli ulug' ayvon. U hovli maydonining taxminan yarmini egallab, yashash xonasining yuqori qismida barpo etiladi va eng keng tarqalgan ayvon turi hisoblanadi;

– hovli bo'ylab cho'zilgan baland o'ng ayvon hamda uning qarama-qarshi tomonida joylashgan, nisbatan past balandlikdagi ters ayvon birgalikda tashkil etilgan kompozitsiya;

– ulug' ayvon qarshisidagi yashash korpusi ustida bolaxonali ayvoncha qurilib, unga tutash ayvonlarning balandligi bir xil sathda joylashtiriladi. Ushbu ayvonlarning o'zaro tutashuvi natijasida oraliqlar yopilib, quyosh nurlarining hovliga tushishi cheklanadi va to'liq soya hosil bo'ladi;

– ayvonlar hovli perimetri bo'ylab joylashtirilgan holda barpo etiladi. Ular ikki, uch yoki to'rt tomondan burchakli tarzda qurilishi mumkin bo'lib, bunday uslub, asosan, shahar chekkasida joylashgan hovlilar me'morchiligida keng qo'llanilgan [1].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, an'anaviy turar uylar me'morchiligi hududiy jihatdan aholining ijtimoiy hayoti, madaniy qatlamlari va iqlim sharoitlari bilan uzviy bog'liq holda shakllanib, arxitekturaviy echimlarida yuksak badiiy ifodasini namoyon etadi. Zamonaviy arxitekturada an'anaviy ayvon uslubining qo'llanilishi binolarning mikroiklimini yaxshilash bilan birga, milliy o'ziga xoslikni saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki va tashqi hovlilarga ajratilgan ikki qismli reja echimiga ega turar joylar nafaqat funksional, balki estetik jihatdan ham yuqori qiymatga ega bo'lib, milliy me'moriy merosning ajralmas qismi hisoblanadi.

Turar uylar va hatto xon saroylarida ham xonalar joylashuvining bir necha hovlilarga bo'linishi, ya'ni ichki va tashqi hovlilarga ajratilishi o'zbekona milliy an'analardan kelib chiqib shakllangan muhim me'moriy xususiyatlardan biri sanaladi.

Bugungi zamonaviy me'morchilikda milliylik va an'anaviylikni yanada kuchaytirish, ularni zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirgan holda arxitekturaviy-rejaviy echimlarni ishlab chiqish va loyihalash jarayonlarida qo'llash ijobiy natijalarga olib keladi, deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Воронина В.Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана. Москва, 1951. 60-61-betlar.
2. Zohidov P. Sh. Me'mor olami. Toshkent, 1996.
3. Манковская Л. Ю. Типологический основой зодчества Средней Азии (IX-XX вв.). Тошкент, 1980.
4. Rahmonov A. Qo'lyozma materiallar.
5. Pugachenkova G. A. O'rta Osiyo me'morchilik yodgorliklari. Toshkent, 1998. 187-bet.
6. Хоткин И. И. Дворец Таш-Хаули (Хива). Тошкент, 1968.
7. "O'zbekistonda milliy an'anaviy uylar". Elektron manba: uzbunyodkor.uz

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100